

Mavlonov Bahodir Biloljonovich,
*Oila va gender ilmiy-tadqiqot ishtituti
bo'limi boshlig'i,
pedagogika fanlari bo'yicha falasafa doktori (PhD)*



OILA VA MAKTAB HAMKORLIGI ASOSIDA O'SMIRLARNING HUSHYORLIK VA OGOHLIK FAZILATLARINI RIVOJLANTIRISH ASOSLARI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada ta'lim va tarbiya borasidagi pedagog va psixolog olimlarning nazariy qarashlari tahlilga tortilgan, shuningdek, o'smir yoshdagi bolalarning hushyorlik va ogohlik fazilatlarini rivojlantirishda ta'lim muassasi va oila hamkorligi, ta'lim va tarbiya uyg'unligi batafsil yoritib berilgan.*

Аннотация. *В данной статье проанализированы теоретические взгляды педагогов и ученых-психологов на образование и воспитание, а также подробно освещены сотрудничество образовательного учреждения и семьи, гармония образования и воспитания в развитии качеств бдительности и осведомленности детей подросткового возраста.*

Annotation. *This article analyzes the theoretical views of pedagogues and psychologists in the field of education and upbringing, as well as the cooperation of the educational institution and the family, the harmony of education and upbringing in the development of vigilance and awareness in adolescents.*

Tayanch so'zlar: *oilal, ta'lim, tarbiya, ta'lim muassasasi, o'smir, o'smirlik davri, hushyorlik, ogohlik, mahalla, metod, usul, kompetensiya.*

Ключевые слова: *семья, образование, воспитание, образовательное учреждение, подросток, подростковый возраст, бдительность, осведомленность, махалля, метод, метод, компетенция.*

Keywords: *family, education, upbringing, educational institution, teenager, adolescent, vigilance, awareness, neighborhood, method, method, competence.*

*Oila tarbiyasi
maktab ta'limiga
payvasta bo'ladi,
ya'ni oiladagi
ilk tasavvurlar
maktabda
fan sifatida
tushuntiriladi.
Atrof-muhit,
ta'lim va tarbiya,
shuningdek,
muayyan mashqlar
o'smirlar miya
tuzilishining
organik jihatdan
yetilishida muhim
o'rin egallaydi.*

Kirish. O'smirlarning dunyoqarashi, o'smirlik davrining psixologik xususiyatlari, o'smirlik muammolari sotsializatsiyaning eng muhim tomoni bo'lgan tarbiyaga bevosita bog'liq. Bozor munosabatlariga asoslangan iqtisodiyotga o'tish ta'limning maqsadlari va tarbiya usullari haqidagi hukmron fikr va qarashlarni o'zgartirdi hamda asosiy sotsializatsiya institutlarining, ya'ni oila, ta'lim, din va ommaviy axborot vositalari rolini qayta belgilab berdi. Axborotlashtirilgan zamonda o'smirlar tarbiyasi va muammolari doimiy e'tiborni talab qiladi. Chunki ular borasida qayg'urish, birinchi navbatda, oilaning, keyinchalik ta'lim muassasasi, mahalla, davlatning bosh vazifasi sanaladi. Ular o'zaro bog'liq bo'lgani uchun oilalarning muammolari oxir-oqibat butun jamiyatning muammosiga aylanadi.

Asosiy qism. Oila tarbiyasi maktab ta'limiga payvasta bo'ladi, ya'ni oiladagi ilk tasavvurlar maktabda fan sifatida tushuntiriladi. Atrof-muhit, ta'lim va tarbiya, shuningdek, muayyan mashqlar o'smirlar miya tuzilishining organik jihatdan yetilishida muhim o'rin egallaydi. Bu jarayonda ta'lim rivojlanishga nisbatan yetakchi yoki ikkilamchi vazifani bajarishi ta'lim jarayonining mazmuni va metodikasi, o'quv dasturlari va darsliklarning mazmuni bilan belgilanadi. Bu borada nemis psixologi va faylasufi V.Shtern (1871–1938) ta'lim psixik rivojlanishning orqasidan boradi va unga moslashadi¹, degan fikrni olg'a surgan. Olimning fikriga muvofiq ta'lim faqat rivojlanish tomonidan erishilgan narsalardan foydalanadi. Shveysariyalik psixolog J.Piajening (1896–1980) nazariyasi² ham shu fikrlarni rivojlantirgan va bolaning aqliy o'sishi o'zining ichki qonunlari asosida rivojlanib, sifat jihatdan o'ziga xos bir qator genetik bosqichlarni bosib o'tishini ta'kidlagan. Ta'lim esa bu aqliy yetilish jarayonini faqat bir qadar tezlashtirishga yoki sekinlashtirishga qodir, lekin aqliy jihatdan yetilish jarayoniga hech qanday jiddiy ta'sir ko'rsata olmaydi. Demak, ta'lim rivojlanish qonunlariga bo'ysunishi kerak. Masalan, bolada mantiqiy tafakkur yetilmay turib, uni mantiqiy fikr yuritishga o'rgatish foydasizdir.

Amaliyot shuni ko'rsatadiki, o'quv faoliyatining samaradorligi o'qituvchi ta'lim maqsadlarini qanchalik aniq tasavvur qilishiga bevosita bog'liq. Buning uchun o'qituvchi, eng avvalo, ikki xususiyatni inobatga olishi kerak. *Birinchi*dan, ta'limning tegishli mazmunining tashkiliy va uslubiy asoslarini tanlash va *ikkinchi*dan, tarbiya darajasini baholash hamda tarbiya jarayoni natijalarini hisobga olish maqsadga muvofiq.

¹ Джон Гриндер <https://ru.wikipedia.org/wiki/>

² Попова З.Д., Стернин И.А. Очерки по когнитивной лингвистике. – Воронеж: Истоки, 2001. – 119 с.

Ma'lumki, *ta'limning asosiy maqsadi* shaxsning har tomonlama, barkamol rivojlanishi bo'lib, u ta'lim obyekti va subyekti o'rtasidagi munosabatlar va o'zaro ta'sirning mazmuni, shakllari, usullari, vositalari va xarakterini belgilaydi. Shu nuqtayi nazardan o'smirlar sotsial guruhining o'ziga xos xususiyatlaridan hamda ularda hushyorlik va ogohlik fazilatlarini rivojlantirish ehtiyojidan kelib chiqqan holda pedagoglar usullar va metodologik texnologiyalarni tanlashlari maqsadga muvofiq sanaladi.

O'smirlarning hushyorlik va ogohlik fazilatlarini shakllantirganda o'quv faoliyatining motivatsiyasi manbalarini keng ishlatish samarali natijalarni ko'rsatadi. Jumladan, ichki motivatsiya manbalari, ya'ni insoniy tug'ma yoki orttirilgan axborotga bo'lgan ehtiyojlari va qiziqishlari bilan belgilanadi. Tashqi motivatsiya manbalari esa shaxsning ijtimoiy hayot shart-sharoitlari bilan belgilanib, jamiyatning o'smirlardan talab qiladigan doimiy xulq-atvorini bildiradi. O'quv maskani va oila o'smirlardan ko'p vazifalarni amalga oshirishni talab qiladi. Ijtimoiy kutish har birimizdan ma'lum bilimlar, ko'nikmalar darajasi bo'lishini ifodalaydi. Masalan, 15 yoshli o'smir kasb tanlashi, 18 yoshda oliy ta'limga kirishi yoki harbiy xizmatga borishi kerak, degan fikr jamiyatda ommalashgan.

Ta'lim jarayonida pedagog tomonidan o'smir o'qishi, jumladan, hushyorlik va ogohlik fazilatlarini rivojlantirishi uchun ham motivlarni shakllantira olishi muhim ahamiyatga ega. Chunki mazkur motivlar ko'p hollarda o'smirlar hayotiy faoliyatidagi qarorlarining asosini tashkil etadi. Rus psixologi va pedagogika sohasi mutaxassisi V.A.Kruteskiy (1917–1991) o'smirlarda uchraydigan motivlarning quyidagilarini alohida keltirib o'tgan:

- biror o'quv faniga qiziqish;
- vatanga foyda keltirish istagi;
- shaxsiy qobiliyatini ro'kach qilish;
- oilaviy an'analarga rioya qilish;
- do'st-birodarlarga ergashish;
- moddiy ta'minlash va h.k.³

O'smirlarni ijtimoiylashtirish jarayonida oila muhiti ularda mamlakat fuqarosining milliy ongi, qadriyatlar tizimi, axloqiy va huquqiy me'yorlar, dunyoqarash yo'nalishlari, ijtimoiy munosabatlar hamda ogohlik va hushyorlik fazilatlarini shakllantirishga qaratilgan ijtimoiy-psixologik munosabatlarni qamrab oladi. Samarali ijtimoiylashuvni o'smirning

Ta'lim jarayonida pedagog tomonidan o'smir o'qishi, jumladan, hushyorlik va ogohlik fazilatlarini rivojlantirishi uchun ham motivlarni shakllantira olishi muhim ahamiyatga ega. Chunki mazkur motivlar ko'p hollarda o'smirlar hayotiy faoliyatidagi qarorlarining asosini tashkil etadi.

³ Крутецкий В. А. Основы педагогической психологии. – Москва: Просвещение, 1991. – 253 с.

*Hamkorlik
jarayonida
o'smirlarda
hushyorlik
va ogohlik
fazilatlariga
asoslanib ijtimoiy
kompetentlikni
shakllantirish
tuzilmasi maqsadga
yo'naltirilgan,
faoliyatga doir
va natijaviy-
korreksion
komponentlarni
o'zida aks ettirib,
dynamik tavsifga
egadir.*

jamiyat va shaxsning barcha boyligi, xilma-xilligida rivojlanishi uchun eng qulay bo'lgan ehtiyojlar to'plami va iyerarxiasini egallashi, o'zlashtirishi va shakllantirishi jarayoni deb hisoblash mumkin.

Oila muhitining quyidagi sifatiy parametrlari o'smirlar ijtimoiylashuvida muhim o'rin tutadi: ijtimoiy-madaniy (oila a'zolarini tarbiyalash, madaniyat, san'atga qiziqish, jamiyatda ishtirok etish); ijtimoiy-iqtisodiy (oila a'zolarining ish va maktabda bandligi, mulkiy xususiyatlari); texnik va gigiyenik (yashash sharoitlari, bola shaxsiy muhitining mavjudligi, uying texnik jihozlari); demografik (oila tuzilishi katta yoki nuklear, to'liq yoki to'liq bo'lmagan, bolalar soniga ko'ra ko'p bolali va h.k.).

Oilada o'smir yoshidagi bolalarda hushyorlik va ogohlik fazilatlarini rivojlantirish milliy-mafkuraviy tarbiya negizida amalga oshirilib, quyidagi sifatlar majmuyini o'z ichiga qamrab oladi

Oila va ta'lim tashkilotining hamkorlikdagi faoliyati murakkab ko'rinishga ega bo'lib, tadqiqotda mazkur jarayon samaradorligini oshirishning pedagogik bosqichlari (motivatsion, kommunikativ-faoliyatga yo'naltirilgan, kognitiv, refleksiv) takomillashtirildi.

Oila va maktab integratsiyasini ta'minlash orqali o'smirlarda hushyorlik va ogohlik fazilatlariga asoslangan ijtimoiy kompetentlikni rivojlantirishga erishiladi.

“Kompetensiya” ma'lum bir kompetentlik kontekstida qo'llanadigan aniq faoliyat sohasidagi ko'nikma va malakalarni o'zida ifoda etadi. Kompetentlik esa o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarni amaliy faoliyat tajribasiga aylantirish, kundalik jarayonda qo'llay olish layoqatini bildiradi.

Hamkorlik jarayonida o'smirlarda hushyorlik va ogohlik fazilatlariga asoslanib ijtimoiy kompetentlikni shakllantirish tuzilmasi maqsadga yo'naltirilgan, faoliyatga doir va natijaviy-korreksion komponentlarni o'zida aks ettiradi va dinamik tavsifga ega bo'ladi. Dinamik jihat oila va maktab integratsiyasi orqali o'smirlarda hushyorlik va ogohlik fazilatlariga asoslanib, ijtimoiy kompetentlikni shakllantirishning interfaol birgalikdagi hamkorlik faoliyatda o'z aksini topgan.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, o'smirlar tarbiyasida ogohlik va hushyorlik fazilatlarini rivojlantirishda, ularning dunyoqarashini shakllantirishda ta'lim muassasalarining o'rni ta'limning o'smir to'la aqliy rivojlanishiga turtki bo'lishi, mantiqiy fikrlash malakasini shakllantirishi hamda tegishli aqliy rivojlanish uchun motivatsiya berishi bilan izohlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Джон Грундер <https://ru.wikipedia.org/wiki/>
2. Попова З.Д., Стернин И.А. Очерки по когнитивной лингвистике. – Воронеж: Истоки, 2001. – 119 с.
3. Крутецкий В. А. Основы педагогической психологии. – Москва: Просвещение, 1991. – 253 с.